



IQTISODIYOT&TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

№5 (3)



2026

ISSN: 2992-8982

<https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz/>



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 2026-yil, may.
3-qism*

Bosh muharrir o'rinbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Muharrir:

Qurbonov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Salimov Oqil Umrzoqov vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Abduraxmanov Kalandar Xodjayev vch, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati
Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari
Axmedov Durbek Kudratillayev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Sayfullo Normatovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Siddiqova Sadoqat G'afforovna, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Xudoyqulov Sadirdin Karimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Maxmudov Nosir, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Samadov Asqarjon Nishonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor
Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Axmedov Ikrom Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Eshtayev Alisher Abdug'aniyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Xajiyev Baxtiyor Dushaboyev vch, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Hakimov Nazar Hakimovich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Musayeva Shoirazimovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), professor
Ali Konak (Ali Ko'nak), iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor (Turkiya)
Cham Tat Huei, falsafa fanlari doktori (PhD), professor (Malayziya)
Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixoja o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dots.
Faxridinov Zafarjon Faxridin o'g'li, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi HIJQKD boshqarma boshlig'i
Utayev Uktam Choriyev vch, Anijon viloyati prokurorining o'rinbosari
Ochilov Farkhod, O'zb. Res. Bosh prokuraturasi IJQK Departamentining Namangan viloyati boshqarmasi boshlig'i
Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Axmedov Javohir Jamolovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), katta o'qituvchi
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), v.b. dots.
Djudi Smetana, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Krissi Lyuis, pedagogika fanlari nomzodi, dotsent (AQSH)
Glazova Marina Viktorovna, Iqtisodiyot fanlari doktori (Moskva)
Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Sevil Piriyeva Karaman, falsafa fanlari doktori (PhD) (Turkiya)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon o'g'li, TDIU ITI departamenti rahbari
Ochilov Bobur Baxtiyor o'g'li, TDIU katta o'qituvchisi
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent.
Abdukarimova Dinara Rustamxonovna, bank-moliya akademiyasi professori, DSc., professor.
Ikramov Murod Akramovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Editorial board:

Salimov Okil Umrzokovich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Abdurakhmanov Kalandar Khodjavevich, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan
Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Rae Kwon Chung, South Korea, Honorary Professor at TSUE, Nobel Prize Laureate
Osman Mesten, Member of the Turkish Parliament, Head of the Turkey–Uzbekistan Friendship Society
Akhmedov Durbek Kudratillayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Sayfullo Normatovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Kalonov Mukhiddin Bakhridinovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Siddikova Sadokat Gafforovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences
Khudoykulov Sadirdin Karimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Makhmudov Nosir, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Yuldashev Mutallib Ibragimovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Samadov Askarjon Nishonovich, Candidate of Economic Sciences, Professor
Slizovskiy Dmitriy Yegorovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Akhmedov Ikrom Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Eshtayev Alisher Abduganiyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khajiyev Bakhtiyor Dushaboyevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Khakimov Nazar Khakimovich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Musayeva Shoira Azimovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Professor
Ali Konak, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor (Turkey)
Cham Tat Huei, Doctor of Philosophy (PhD), Professor (Malaysia)
Foziljonov Ibrokhimjon Sotvoldikhoja ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Fakhriddinov Zafarjon Fakhriddin ogli, Head of the DCEC under the Prosecutor General's Office of the Rep. of Uzb.
Utayev Uktam Choriyevich, Deputy Prosecutor of Anijan Region
Ochilov Farkhod, Head of the Namangan Regional Department of the Department of Internal Affairs of Rep. of Uzb.
Buzrukkhonov Sarvarkhon Munavvarkhonovich, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Akhmedov Javokhir Jamolovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences
Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli, Doctor of Philosophy (PhD) in Technical Sciences, Senior Lecturer
Bobobekov Ergash Abdumalikovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Acting Associate Professor
Judi Smetana, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Chrissy Lewis, Candidate of Pedagogical Sciences, Associate Professor (USA)
Glazova Marina Victorovna, Doctor of Sciences in Economics (Moscow)
Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi, Doctor of Philosophy (PhD) in Economic Sciences, Associate Professor
Sevil Piriyeva Karaman, Doctor of Philosophy (PhD) (Turkey)
Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli, Head of the Department of Scientific Research and Innovations, TSUE
Ochilov Bobur Bakhtiyor ugli, Senior lecturer at TSUI
Golisheva Yelena Vyacheslavovna, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Abdukarimova Dinara Rustamkhanovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Ikramov Murod Akramovich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Nazarova Ra'no Rustamovna, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor

Ekspertlar kengashi:

Berkinov Bazarbay, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Po'latov Baxtiyor Alimovich, texnika fanlari doktori (DSc), professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, falsafa fanlari doktori (DSc), professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor
Rustamov Ilhomiddin, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent
Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Kamilova Iroda Xusniddinovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
G'afurov Doniyor Orifovich, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)
Fayziyev Oybek Raximovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi, iqtisodiyot fanlari doktori, dotsent
Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, katta o'qituvchi
Babayeva Zuhra Yuldashevna, mustaqil tadqiqotchi
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Geografiya fanlari doktori, professori
Umirzoqov Ja'sur Artiqboy o'g'li, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent
Zebo Kuldasheva, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Board of Experts:

Berkinov Bazarbay, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Pulatov Bakhtiyor Alimovich, Doctor of Technical Sciences (DSc), Professor
Aliyev Bekdavlat Aliyevich, Doctor of Philosophy (DSc), Professor
Isakov Janabay Yakubbayevich, Doctor of Economic Sciences (DSc), Professor
Rustamov Ilkomiddin, Candidate of Economic Sciences, Associate Professor
Khakimov Ziyodulla Akhmadovich, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Kamilova Iroda Xusniddinovna, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics
Gafurov Doniyor Orifovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogy
Fayziyev Oybek Rakhimovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Tukhtabayev Jamshid Sharafetdinovich, Doctor of Philosophy (PhD) in Economics, Associate Professor
Khamidova Faridaxon Abdulkarimovna, Doctor of Economic Sciences, Associate Professor
Yakhshiboyeva Laylo Abdisattorovna, Senior Lecturer
Babayeva Zuhra Yuldashevna, Independent Researcher
Komilova Nilufar Karshiboyevna, Doctor of Geographical Sciences, Professor
Umirzokov Jasur Artiqboy ugli, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor
Zebo Kuldasheva, Doctor of Economic Sciences (DSc), Associate Professor

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

“Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro'yxatdan o'tkazilgan.



MUNDARIJA

EKOLOGIK BARQARORLIKNI TA'MINLASHGA QARATILGAN HAYOTIY TASHABBUSLAR.....	12
Muxiddin Kalonov	
O'ZBEKISTONDA NAQDSIZ TO'LOVLAR ULUSHINING OSHISHI VA PUL MASSASI NAZORATI SAMARADORLIGIGA TA'SIRI.....	28
Pardayev G'ayrat Jabbor o'g'li	
BUXGALTERIYA HISOBINING PAYDO BO'LISHI VA RIVOJLANISHI HISOB SIYOSATINING SHAKLLANISHIDA ASOS SIFATIDA.....	34
Abduvaxidov Farxod Tuychiyevich	
O'ZBEKISTON AUDITORLIK TASHKILOTLARIDA ICHKI SIFAT NAZORATI STANDARTLARINI RISKKA YO'NALTIRILGAN YONDASHUV ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	41
Bobonarova Kamola	
SANOAT KORXONALARINING INVESTITSION-INNOVATSION FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI.....	47
Azizova Habiba Arslonovna	
TADBIRKORLIK SUBYEKTLARIGA RAQAMLI DAVLAT XIZMATLARINI KO'RSATISHNING NAZARIY YONDASHUVLARI.....	56
Yusupova Dilbar Mirabidovna	
KARBOHOVYIE KREDITI V AGRAPHOМ СЕКТОРЕ КАК ИНСТРУМЕНТ РАЗВИТИЯ ЗЕЛЁНОЙ ЭКОНОМИКИ УЗБЕКИСТАНА.....	61
Абдуллаева Зайнаб Руслановна	
BUXORO ZINDONI VA BOLO HOVUZ ANSAMBLI MISOLIDA TARIXIY OBIDALARNING BARQAROR TURISTIK SIG'IMI TAHLILI.....	66
Shodiyeva Moxichehra Shokir qizi, Qilichov Muhridin Husniddin o'g'li	
SOLIQ TIZIMIDA SOLIQ RISKINI BAHOLASH USLUBIYOTI.....	73
Ravshanjon Azimovich	
O'ZBEKISTONDA UMUMIY O'RTA TA'LIM TIZIMI: RIVOJLANISH TENDENSIYALARI VA BUXORO VILOYATI TAHLILI.....	80
Davidxodjayev Oybek Obidovich	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION KREDITLASHLASHNING AMALDAGI HOLATI VA ISTIQBOLLARI.....	85
Abdurashidova Mohidil Qodir qizi, Karimova A.	
IQTISODIYOTNI TRANSFORMATSIYALASH SHAROITIDA DXSH ASOSIDA FAOLIYAT YURITAYOTGAN TADBIRKORLIK SUBYEKTLARINI MOLIYAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHNI BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI.....	91
Toxirov Jaxongir Maxmudjon o'g'li	
SURXONDARYO VILOYATIDA UY-JOY QURILISHI VA IPOTEKA KREDITLASHNING O'ZARO BOG'LIQLIGI.....	96
Turopova Nigora Xolmurod qizi, Safarova Dilrabo Baxriddin qizi	
ESG INTEGRATION AND GREEN FINANCIAL ANALYSIS: A NEW METHODOLOGICAL APPROACH TO CORPORATE FINANCIAL SUSTAINABILITY.....	100
Erkin Temirovich Shodiev	
THE CURRENT STATE OF DIGITALIZATION OF TOURISM IN UZBEKISTAN AND PROSPECTS FOR ITS DEVELOPMENT.....	105
Bekmurodov Bakhtiyor Farkhodovich	
TA'LIM MUASSASALARINI MOLIYALASHTIRISHDA OPTIMALLASHTIRISH ZARURATI VA YO'NALISHLARI.....	113
Umarov Avzaljon Yodgorali o'g'li	



АХОЛИ ИСТЕ’МОЛ МАДАНИЯТИ ВА МИЛЛИЙ IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI	118
Rustamov Sheroz Oblokulovich	
ISHLAB CHIQRISH OMILLARINING IQTISODIY O’SISHGA TA’SIRI: KOBБ–DOUGLAS MODELII ASOSIDA EKONOMETRIK TAHLIL	123
Maxmudov Sobir Xudoyberdiyevich	
BARQAROR SHAHARSOZLIK RIVOJLANISHIGA ERISHISHDA QATTIQ CHIQINDILARNI KOMPLEKS BOSHQARISH	129
Firas Halawani, Feruza Insavaliyeva	
СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ РЕАЛИЗАЦИИ НА НАЦИОНАЛЬНОМ УРОВНЕ КЛЮЧЕВЫХ МЕЖДУНАРОДНЫХ ЭКОЛОГИЧЕСКИХ СОГЛАШЕНИЙ, СВЯЗАННЫХ С ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ, В УЗБЕКИСТАНЕ И СОСЕДНИХ СТРАНАХ.....	139
Шафикова Луиза, Ойбек Камилов	
ЦИФРОВАЯ ЭКОНОМИКА УЗБЕКИСТАНА: ОЦЕНКА ТЕКУЩЕГО УРОВНЯ И ПОТЕНЦИАЛА РОСТА	150
Омонтурдиева Диёра	
YER VA SUV RESURSLARINI INTEGRATSIYALASHGAN BOSHQARISHDA DRONLARDAN FOYDALANISH.....	155
Matkarimov Mansur	
YASHIL INVESTITSIYALAR BOZORI MEKANIZMINING DASTAKLARI	161
Ziyodullayeva Gulasal Akmal qizi	
СТРАТЕГИЯ ПРИВЛЕЧЕНИЯ И УДЕРЖАНИЯ ПЕРСОНАЛА ПОСРЕДСТВОМ HR-БРЕНДИНГА: ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ И ПРАКТИКА РЕАЛИЗАЦИИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	167
Дониерова Фотимабону Алишер кизи	
KAMBAG’ALLIKNI MONETAR VA KO’P O’LCHOVLI VAHOLASH METODOLOGIYASI ASOSIDA IQTISODIY O’SISH STRATEGIYALARINI KONSEPTUAL TAKOMILLASHTIRISH	173
Sotiboldiyev Asadbek Hasan o’g’li	
QURILISH SANOATIDA RESURS TEJAMKOR ISHLAB CHIQRISH TIZIMINI RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI.....	179
Utbasarov Doniyorjon Baxtiyorovich	
KICHIK BIZNESDA XIZMATLAR SOHASINI RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA RIVOJLANTIRISHNING AHAMIYATI.....	188
Raximov Zafar Komilovich, Mamatazimov Jaloliddin Sherzod o’g’li	
MANAGING DIGITAL TRANSFORMATION IN PRIMARY HEALTHCARE: A SYSTEMATIC LITERATURE REVIEW	192
Ashurova Sitora Xusnitdin qizi	
МЕЖДУНАРОДНЫЕ ПРАВОВЫЕ ПРОБЕЛЫ В УПРАВЛЕНИИ ТРАНСГРАНИЧНЫМ ЗАГРЯЗНЕНИЕМ ВОД В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ	197
Тиллахуджаев Аббосхон, Дилфуза Шакирова, Мухамедалиева Сайёра, Ойбек Камилов	
JAHON ME’MORIY MEROSIDAN TURIZMDA FOYDALANISH: DOLZARB MUAMMOLAR, ZAMONAVIY YECHIMLAR VA ISTIQBOLLI TAKLIFLAR.....	208
Qilichov Muhridin Husniddin o’g’li	
IMPROVING SALES PROMOTION STRATEGIES FOR UZBEK EXPORTERS IN DEVELOPING FOREIGN MARKETS.....	217
Aziz Kurbanovich Abdullaev, Rustamova Madina Baxrom qizi	
ENVIRONMENTAL DEGRADATION AND CARBON EMISSION: INTERCONNECTED LINKS WITH ECONOMIC GROWTH IN POST-SOVIET.....	222
Rajabova Malika Nuriddin qizi	
NATIJAGA YO’NALTIRILGAN BUDJETLASHTIRISHGA OID ILMIY QARASHLAR VA YONDASHUVLAR	230
Qosimova Gulyar Axmatovna	



ТРАНСГРАНИЧНЫЕ ФАКТОРЫ РАЗВИТИЯ РЕГИОНАЛЬНОГО ТУРИЗМА НА ПРИМЕРЕ РЕСПУБЛИКИ КАРАКАЛПАКСТАН.....	236
Наурызбаев Алиакбар Рустамович	
ВЗАИМОСВЯЗЬ УРОВНЯ ЖИЗНИ И ИНДЕКСА ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ В УСЛОВИЯХ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ	239
Усманова Зумрад Исламовна	
KIMYO SANOAT KORXONALARINING INNOVATSION FAOLIYATINI MOLIYALASHTIRISHNI YANADA TAKOMILLASHTIRISH CHORALARI	242
Muxammadiyeva Munira Zaynabuddinovna	
QISHLOQ UY-JOY QURILISHIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMLARINING AHAMIYATI.....	248
Xannarov Komiljon Karimovich	
TIBBIYOT MUASSASALARI FAOLIYATINI MUVOFIQLASHTIRISH VA VAZIFALAR TAQSIMOTI TAMOYILLARI.....	253
Saidov Suhrob Shodmonovich	
HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI.....	257
Akbarova Kamola Akmaljonovna	



HUDUDIY IQTISODIY INTEGRATSIYA RIVOJLANISHINING XORIJIY TAJRIBASI VA MARKAZIY OSIYO MAMLAKATLARI UCHUN AHAMIYATI

Akbarova Kamola Akmaljonovna

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti o'qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada hududiy iqtisodiy integratsiya rivojlanishining xorijiy tajribasi hamda uning Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ahamiyati tahlil qilingan. Tadqiqot davomida Yevropa Ittifoqi, ASEAN, MERCOSUR va boshqa integratsion tuzilmalarning iqtisodiy hamkorlik mexanizmlari o'rganildi. Mintaqaviy integratsiyaning savdo, transport-logistika, energetika va investitsiya jarayonlariga ta'siri baholandi. Shuningdek, Markaziy Osiyo mamlakatlarida iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlari va xorijiy tajribani mintaqa sharoitiga moslashtirish imkoniyatlari yoritildi. Tadqiqot natijalari mintaqaviy iqtisodiy hamkorlikni kuchaytirish, tranzit salohiyatini oshirish va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash bo'yicha ilmiy-amaliy xulosalarni shakllantirishga xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: hududiy integratsiya, iqtisodiy hamkorlik, Markaziy Osiyo, transport-logistika, investitsiya, xalqaro savdo, ASEAN, Yevropa Ittifoqi, MERCOSUR, iqtisodiy rivojlanish.

Abstract. This article analyzes the foreign experience of regional economic integration development and its importance for Central Asian countries. The study examines the mechanisms of economic cooperation within the European Union, ASEAN, MERCOSUR, and other integration associations. The impact of regional integration on trade, transport and logistics, energy, and investment processes is assessed. In addition, the priority directions for the development of economic integration in Central Asia and the possibilities of adapting foreign experience to regional conditions are highlighted. The research findings contribute to the development of scientific and practical conclusions aimed at strengthening regional economic cooperation, increasing transit potential, and ensuring economic stability.

Key words: regional integration, economic cooperation, Central Asia, transport and logistics, investment, international trade, ASEAN, European Union, MERCOSUR, economic development.

Аннотация. В данной статье проанализирован зарубежный опыт развития региональной экономической интеграции и его значение для стран Центральной Азии. В ходе исследования были изучены механизмы экономического сотрудничества Европейского Союза, ASEAN, MERCOSUR и других интеграционных объединений. Оценено влияние региональной интеграции на торговлю, транспортно-логистическую сферу, энергетику и инвестиционные процессы. Также рассмотрены приоритетные направления развития экономической интеграции в странах Центральной Азии и возможности адаптации зарубежного опыта к условиям региона. Результаты исследования способствуют формированию научно-практических выводов по укреплению регионального экономического сотрудничества, повышению транзитного потенциала и обеспечению экономической устойчивости.

Ключевые слова: региональная интеграция, экономическое сотрудничество, Центральная Азия, транспорт и логистика, инвестиции, международная торговля, ASEAN, Европейский Союз, MERCOSUR, экономическое развитие.

KIRISH

Jahon iqtisodiyotida globallashtirish jarayonlarining jadallashtirishi, geosiyosiy va geoiqtisodiy munosabatlarning murakkablashuvi hududiy iqtisodiy integratsiyaning ahamiyatini yanada oshirmoqda. Bugungi kunda hududiy integratsiya mamlakatlar o'rtasida savdo-iqtisodiy aloqalarni kengaytirish, investitsion hamkorlikni rivojlantirish, transport-logistika tizimlarini takomillashtirish hamda iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning muhim omillaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Ayniqsa, Yevropa Ittifoqi, ASEAN, MERCOSUR va NAFTA kabi integratsion tuzilmalarning amaliy tajribasi hududiy hamkorlikning iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlikni oshirishdagi muhim rolini tasdiqlamoqda.



Global iqtisodiy makonda yuz berayotgan o'zgarishlar, xalqaro bozorlardagi beqarorlik, energetika va oziq-ovqat xavfsizligi bilan bog'liq muammolar Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham o'zaro iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish zaruratini kuchaytirmoqda. So'nggi yillarda mintaqa davlatlari o'rtasida savdo, transport-kommunikatsiya, energetika, suv resurslaridan foydalanish hamda investitsiyaviy hamkorlik yo'nalishlarida ijobiy siljishlar kuzatilmoqda. Shu bilan birga, hududiy integratsiya jarayonlarini chuqurlashtirishda institutsional mexanizmlarning yetarli darajada shakllanmaganligi, tashqi iqtisodiy bog'liqlik va logistika cheklovlari kabi omillar dolzarb masalalardan biri bo'lib qolmoqda.

Mazkur mavzuning dolzarbligi shundaki, hududiy iqtisodiy integratsiya rivojlanishining ilg'or xorijiy tajribalarini o'rganish va ularni Markaziy Osiyo sharoitiga moslashtirish mintaqada iqtisodiy barqarorlikni mustahkamlash, ichki bozorlardan samarali foydalanish, eksport salohiyatini oshirish hamda global iqtisodiy tizimdagi raqobatbardoshlikni kuchaytirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Shuningdek, integratsion hamkorlikning samarali mexanizmlarini ishlab chiqish mintaqa davlatlari o'rtasida uzoq muddatli iqtisodiy sheriklikni rivojlantirish uchun zarur ilmiy va amaliy asoslarni shakllantiradi.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi hududiy iqtisodiy integratsiya rivojlanishining xorijiy tajribasini tahlil qilish, uning asosiy mexanizmlari va samarali jihatlari aniqlash hamda ushbu tajribalarni Markaziy Osiyo mamlakatlari iqtisodiy hamkorligini rivojlantirishda qo'llash imkoniyatlarini baholashdan iborat.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Hududiy iqtisodiy integratsiya masalasi xalqaro iqtisodiy munosabatlar tizimida muhim ilmiy-amaliy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Xususan, Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun integratsiya jarayonlari savdo aloqalarini kengaytirish, transport-logistika imkoniyatlaridan samarali foydalanish, investitsiyaviy hamkorlikni kuchaytirish va mintaqaning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlash bilan bevosita bog'liqdir. World Bank tomonidan tayyorlangan "Bazaars and Trade Integration in Central Asia" tadqiqotida Markaziy Osiyoda bozorlar, chegaraoldi savdosi va kichik tadbirkorlik subyektlari mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni rivojlantirishda muhim vosita sifatida baholanadi. Mazkur manbada norasmiy va yarim rasmiy savdo oqimlari ham hududiy integratsiyaning real holatini ko'rsatuvchi muhim omil sifatida talqin etiladi [4].

OECD/ITF tomonidan ishlab chiqilgan "Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia" nomli tadqiqotda Markaziy Osiyo mamlakatlarining iqtisodiy integratsiyasi, eng avvalo, transport bog'liqligi va yuk tashish tizimining samaradorligi bilan bog'liq ekani ta'kidlanadi. Tadqiqotda mintaqaning dengizga to'g'ridan-to'g'ri chiqish imkoniyatiga ega emasligi logistika xarajatlarini oshiruvchi omil sifatida ko'rsatiladi. Shu sababli temiryo'l, avtomobil yo'llari, multimodal transport yo'laklari va chegara o'tkazish punktlarini modernizatsiya qilish mintaqaviy integratsiyani chuqurlashtirishning asosiy sharti sifatida asoslanadi. Ushbu yondashuv Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun transport-kommunikatsiya tizimini rivojlantirish integratsion hamkorlikning tayanch yo'nalishi ekanini ko'rsatadi [5].

Eurasian Development Bank tomonidan e'lon qilingan "The Economy of Central Asia: A Fresh Perspective" tadqiqotida Markaziy Osiyo iqtisodiyotining yangi rivojlanish bosqichi, mintaqaviy savdo, investitsiya oqimlari, mehnat migratsiyasi, energetika hamkorligi va infratuzilmaviy bog'liqlik masalalari keng yoritilgan. Ushbu manbada mintaqa davlatlarining iqtisodiy tuzilmasi bir-birini to'ldiruvchi xususiyatga ega ekani alohida qayd etiladi. Xususan, tabiiy resurslar, transport yo'laklari, sanoat salohiyati va inson kapitali omillarining uyg'unlashuvi Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasida kooperatsion aloqalarni kengaytirish imkonini beradi. Bu esa hududiy iqtisodiy integratsiyani faqat savdo doirasida emas, balki ishlab chiqarish, energetika va investitsiya hamkorligi asosida ham rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi [6].

United Nations ESCAP tomonidan tayyorlangan "Regional Economic Cooperation and Integration in South and South-West Asia" tadqiqotida mintaqaviy iqtisodiy hamkorlik va integratsiyaning institutsional asoslari, savdo erkinligi, transport aloqalari, energetika tarmoqlari va raqamli bog'liqlik masalalari tahlil qilingan. Ushbu manba Janubiy va Janubi-G'arbiy Osiyo tajribasi orqali integratsiya jarayonlarida mintaqaviy institutlar, savdo siyosatini muvofiqlashtirish va infratuzilmaviy loyihalarning ahamiyatini ko'rsatadi. Mazkur tajriba Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham dolzarb bo'lib, integratsiyani rivojlantirishda faqat ikki tomonlama bitimlar bilan cheklanib qolmasdan, ko'p tomonlama iqtisodiy mexanizmlarni shakllantirish zarurligini asoslaydi [8].

World Trade Organization tomonidan e'lon qilingan "World Trade Report 2011" hisobotida preferensial savdo kelishuvlari va hududiy iqtisodiy integratsiyaning xalqaro savdo tizimidagi o'rni tahlil qilinadi. Hisobotda hududiy savdo kelishuvlari mamlakatlar o'rtasida tarif va notarif to'siqlarni kamaytirish, bozorlar ochiqqligini oshirish hamda savdo oqimlarini jadallashtirishga xizmat qilishi qayd etiladi. Shu bilan birga, bunday kelishuvlarning samaradorligi ularning xalqaro savdo qoidalari bilan uyg'unlashuvi va ichki iqtisodiy siyosat bilan muvofiqligiga bog'liq ekani ko'rsatiladi. Bu nuqtayi nazardan Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun mintaqaviy savdo tartiblarini soddalashtirish, bojxona jarayonlarini raqamlashtirish va o'zaro bozor ochiqqligini bosqichma-bosqich kengaytirish muhim ahamiyatga ega [9].



ASEAN Sekretariat tomonidan ishlab chiqilgan “ASEAN Economic Community Blueprint 2025” hujjatida Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari o’rtasida iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtirishning strategik yo’nalishlari belgilangan. Ushbu hujjatda yagona bozor va ishlab chiqarish bazasini shakllantirish, raqobatbardosh iqtisodiy hudud yaratish, kichik va o’rta biznesni qo’llab-quvvatlash, innovatsiyalarni rivojlantirish hamda global iqtisodiyotga integratsiyalashuv asosiy vazifalar sifatida ko’rsatiladi. ASEAN tajribasi Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun shunisi bilan ahamiyatli, unda iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo’lgan davlatlar o’zaro manfaatlar asosida bosqichma-bosqich integratsiyalashmoqda. Bu Markaziy Osiyoda ham moslashuvchan, pragmatik va iqtisodiy manfaatlariga asoslangan integratsiya modelini rivojlantirish zarurligini ko’rsatadi [10].

Bouzas, Da Motta Veiga va Torrent tomonidan tayyorlangan MERCOSUR integratsiyasiga oid tadqiqotda Janubiy Amerika mamlakatlari o’rtasidagi iqtisodiy integratsiya jarayonlari, bozor ochiqqligi, savdo siyosati va institutsional muvofiqlashtirish masalalari tahlil qilingan. Ushbu manbada MERCOSUR tajribasi orqali integratsion tuzilmalar faqat tariflarni kamaytirish bilan cheklanmasligi, balki bozor qoidalari, sanoat siyosati, investitsiya sharoitlari va institutsional boshqaruv mexanizmlarini ham qamrab olishi zarurligi ko’rsatiladi. Bu tajriba Markaziy Osiyo uchun ham muhim bo’lib, mintaqaviy integratsiya jarayonlarida savdo hamkorligi bilan bir qatorda ishlab chiqarish kooperatsiyasi va umumiy iqtisodiy manfaatlarini muvofiqlashtirish zarurligini asoslaydi [11].

Linn tomonidan tayyorlangan “Central Asian Regional Integration and Cooperation: Reality or Mirage?” tadqiqotida Markaziy Osiyoda mintaqaviy integratsiya va hamkorlikning real imkoniyatlari hamda cheklovlari tahlil qilingan. Muallif Markaziy Osiyo davlatlari o’rtasida tarixiy, geografik va iqtisodiy bog’liqlik mavjudligini ta’kidlagan holda, mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirish uchun siyosiy iroda, institutsional mexanizmlar, infratuzilmaviy bog’liqlik va o’zaro ishonch muhimligini qayd etadi. Ushbu yondashuv Markaziy Osiyo integratsiyasi faqat iqtisodiy zarurat emas, balki uzoq muddatli strategik rivojlanish omili ekanini ko’rsatadi. Shu bois mintaqaviy integratsiya jarayonlarida savdo, transport, energetika va institutsional hamkorlik o’zaro bog’liq holda rivojlantirilishi kerak [12].

Umuman olganda, tahlil qilingan adabiyotlar hududiy iqtisodiy integratsiyaning samarali rivojlanishi bir nechta asosiy omillarga, ya’ni savdo to’siqlarini kamaytirish, transport-logistika infratuzilmasini yaxshilash, institutsional mexanizmlarni mustahkamlash, investitsion hamkorlikni kengaytirish va davlatlar o’rtasidagi iqtisodiy manfaatlarini uyg’unlashtirishga bog’liq ekanini ko’rsatadi. Xorijiy tajribalar, xususan, ASEAN va MERCOSUR modellari Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun moslashuvchan, bosqichma-bosqich va amaliy manfaatlariga asoslangan integratsiya modelini shakllantirish zarurligini anglatadi. Shu bilan birga, World Bank, OECD/ITF, ESCAP va Eurasian Development Bank tadqiqotlari Markaziy Osiyo integratsiyasining asosiy tayanchi transport, savdo, energetika va institutsional hamkorlik ekanini tasdiqlaydi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida hududiy iqtisodiy integratsiya rivojlanishining xorijiy tajribasini o’rganish maqsadida Yevropa Ittifoqi, ASEAN, MERCOSUR va boshqa integratsion tuzilmalarga oid xalqaro tashkilotlar hisobotlari, ilmiy maqolalar, statistik ma’lumotlar hamda normativ-huquqiy hujjatlardan foydalanildi. Ma’lumotlarni yig’ishda Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg’armasi, BMT, JST va Markaziy Osiyo mamlakatlari rasmiy statistik manbalari asosiy axborot bazasi sifatida xizmat qildi. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik tahlil, tizimli yondashuv va iqtisodiy taqqoslash usullaridan foydalanildi. Hududiy integratsiyaning iqtisodiy samaradorligi savdo aylanmasi, investitsiyalar oqimi, transport-logistika ko’rsatkichlari hamda iqtisodiy hamkorlik dinamikasi asosida baholandi. Shuningdek, xorijiy integratsion modellarning institutsional mexanizmlari tahlil qilinib, ularni Markaziy Osiyo mamlakatlari sharoitida qo’llash imkoniyatlari ilmiy jihatdan umumlashtirildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hududiy iqtisodiy integratsiya zamonaviy jahon iqtisodiyotining eng muhim rivojlanish tendensiyalaridan biri hisoblanadi. Global iqtisodiy munosabatlarning chuqurlashuvi, xalqaro savdo hajmining ortishi, ishlab chiqarish zanjirlarining transmilliy tus olishi va geosiyosiy raqobatning kuchayishi mamlakatlarni o’zaro iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirishga undamoqda. Ayniqsa, hududiy integratsiya davlatlar uchun iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash, tashqi bozorlarga chiqish imkoniyatlarini kengaytirish, investitsiyalar oqimini ko’paytirish hamda logistika xarajatlarini kamaytirishda muhim omil bo’lib xizmat qilmoqda. Shu sababli dunyoning turli mintaqalarida shakllangan integratsion uyushmalar iqtisodiy taraqqiyotning samarali modeli sifatida e’tirof etilmoqda.

Xorijiy tajriba shuni ko’rsatadiki, hududiy integratsiyaning muvaffaqiyati avvalo iqtisodiy manfaatlarining uyg’unligi, institutsional mexanizmlarning samaradorligi va siyosiy barqarorlik bilan chambarchas bog’liqdir. Yevropa Ittifoqi hududiy integratsiyaning eng rivojlangan modeli hisoblanib, unda yagona bozor, bojxona ittifoqi, umumiy valyuta tizimi va erkin mehnat migratsiyasi mexanizmlari shakllangan. Mazkur integratsion model



dastlab iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish maqsadida tashkil etilgan bo'lsa-da, keyinchalik siyosiy va ijtimoiy integratsiyaning ham chuqurlashuviga xizmat qildi. Yevropa Ittifoqining tajribasi integratsion jarayonlarda yagona normativ-huquqiy makon, umumiy infratuzilma siyosati va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarining muhim ahamiyat kasb etishini ko'rsatadi.

ASEAN mamlakatlari tajribasi esa integratsiyaning nisbatan moslashuvchan modelini namoyon etadi. Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy hamkorlik bosqichma-bosqich rivojlantirilib, savdo to'siqlarini qisqartirish, investitsiyalar uchun qulay muhit yaratish hamda transport-logistika tizimlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratilgan. ASEAN tajribasining muhim jihatlaridan biri shundaki, unda a'zo davlatlarning iqtisodiy rivojlanish darajasi turlicha bo'lishiga qaramasdan, o'zaro manfaatdorlik asosida integratsion aloqalar mustahkamlanmoqda. Bu holat Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ham muhim amaliy ahamiyatga ega, chunki mintaqa davlatlari iqtisodiy salohiyati, tabiiy resurslari va tashqi iqtisodiy imkoniyatlari bo'yicha bir-biridan farqlanadi.

MERCOSUR tajribasi esa savdo integratsiyasining Janubiy Amerika davlatlari iqtisodiyotidagi o'rnini namoyish etadi. Ushbu uyushma doirasida bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish, ichki bozorlarni kengaytirish va mintaqaviy ishlab chiqarish zanjirlarini shakllantirish asosiy yo'nalish sifatida belgilangan. Shu bilan birga, MERCOSUR faoliyati integratsion jarayonlarda siyosiy omillarning ham muhim rol o'ynashini ko'rsatadi. Ayrim hollarda iqtisodiy manfaatlar va siyosiy qarashlar o'rtasidagi nomuvofiqlik integratsiya samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Bu tajriba Markaziy Osiyo davlatlari uchun integratsion hamkorlikda uzoq muddatli strategik manfaatlarini ustuvor qo'yish zarurligini anglatadi.

Markaziy Osiyo mintaqasi geografik joylashuvi, tabiiy resurslarga boyligi va transport-kommunikatsiya imkoniyatlari bilan global iqtisodiy makonda muhim strategik hudud hisoblanadi. Mintaqa Sharq va G'arbni bog'lovchi asosiy transport yo'laklaridan biri bo'lib, xalqaro savdo va logistika tizimida katta salohiyatga ega. So'nggi yillarda Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida iqtisodiy hamkorlikni rivojlantirish bo'yicha sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilmoqda. Xususan, o'zaro savdo hajmining ortishi, chegaraoldi hududlarida iqtisodiy aloqalarning kengayishi hamda transport infratuzilmasi loyihalarining amalga oshirilishi integratsion jarayonlarning faollashayotganini ko'rsatadi (1-jadval).

1-jadval. Hududiy iqtisodiy integratsiyaning xorijiy modellari va ularning asosiy xususiyatlari¹

Integratsion model	Hudud	Asosiy maqsadi	Muhim integratsion mexanizmlar	Markaziy Osiyo uchun ahamiyati
Yevropa Ittifoqi (EU)	Yevropa	Yagona iqtisodiy makon yaratish	Yagona bozor, bojxona ittifoqi, umumiy valyuta, erkin mehnat migratsiyasi	Institutsional integratsiya va yagona bozor mexanizmlarini shakllantirish tajribasi
ASEAN	Janubi-Sharqiy Osiyo	Savdo va investitsion hamkorlikni rivojlantirish	Erkin savdo hududi, logistika integratsiyasi, moslashuvchan iqtisodiy hamkorlik	Turli iqtisodiy salohiyatga ega davlatlar o'rtasida hamkorlikni rivojlantirish modeli
MERCOSUR	Janubiy Amerika	Ichki bozorni kengaytirish	Bojxona imtiyozlari, savdo to'siqlarini kamaytirish, qo'shma iqtisodiy siyosat	Savdo integratsiyasi va mintaqaviy ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirish tajribasi
NAFTA/USMCA	Shimoliy Amerika	Savdo hajmini oshirish va ishlab chiqarishni integratsiyalash	Erkin savdo rejimi, investitsiyalarni himoya qilish, logistika hamkorligi	Eksport salohiyatini oshirish va transchegaraviy iqtisodiy aloqalarni kuchaytirish imkoniyati
Shanxay hamkorlik tashkiloti (ShHT)	Osiyo	Mintaqaviy xavfsizlik va iqtisodiy hamkorlik	Transport, energetika va investitsion loyihalar bo'yicha hamkorlik	Markaziy Osiyo davlatlari uchun transport va energetika integratsiyasini rivojlantirish imkoniyati

Jadval ma'lumotlari hududiy iqtisodiy integratsiyaning turli modellari iqtisodiy rivojlanishning o'ziga xos mexanizmlariga asoslanishini ko'rsatadi. Yevropa Ittifoqi integratsiyaning chuqur institutsional modelini namoyon etsa, ASEAN ko'proq moslashuvchan va bosqichma-bosqich hamkorlik tamoyiliga asoslanadi. MERCOSUR va USMCA savdo integratsiyasi hamda ishlab chiqarish zanjirlarini rivojlantirishga ustuvor ahamiyat qaratadi. ShHT esa iqtisodiy hamkorlik bilan bir qatorda transport, energetika va mintaqaviy barqarorlik masalalarini ham

1 Manba: muallif ishlanmasi.



qamrab oladi. Ushbu tajribalar Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun savdo, logistika, investitsiya va institutsional hamkorlikni rivojlantirishda muhim amaliy ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, mintaqaning tranzit salohiyati va tabiiy resurslaridan samarali foydalanishda xorijiy integratsion modellarning ilg'or jihatlarini qo'llash istiqbolli hisoblanadi.

Mintaqada iqtisodiy integratsiyani rivojlantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri transport-logistika tizimini takomillashtirish hisoblanadi. Markaziy Osiyo davlatlari dengizga chiqish imkoniyatiga ega emasligi sababli tranzit yo'laklari va logistika infratuzilmasi iqtisodiy rivojlanishning strategik omiliga aylanmoqda. Shu nuqtayi nazardan, "Xitoy – Markaziy Osiyo – Yevropa" transport yo'nalishi, Transkaspiy xalqaro transport koridori hamda "Bir makon – bir yo'l" tashabbusi doirasidagi loyihalar mintaqa integratsiyasi uchun muhim ahamiyatga ega. Transport xarajatlarining qisqarishi va logistika tizimining samarali tashkil etilishi mintaqa davlatlarining eksport salohiyatini oshirishga xizmat qiladi.

Energetika sohasidagi hamkorlik ham Markaziy Osiyo integratsiyasining muhim yo'nalishlaridan biridir. Mintaqa davlatlari tabiiy gaz, neft, gidroenergetika va boshqa energiya resurslariga boy bo'lib, ularning o'zaro iqtisodiy manfaatlari energetik integratsiyani rivojlantirish uchun qulay imkoniyat yaratadi. Ayniqsa, elektr energiyasi almashinuvi, yagona energetika tizimini tiklash hamda mintaqaviy energetika bozori elementlarini shakllantirish iqtisodiy samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shu bilan birga, suv resurslaridan foydalanish masalasi ham Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasidagi hamkorlikning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xorijiy tajriba asosida Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun integratsiyani rivojlantirishda bir qator ustuvor yo'nalishlarni ajratib ko'rsatish mumkin. Birinchidan, mintaqada savdo tartib-taomillarini soddalashtirish va bojxona tizimini raqamlashtirish zarur. Bu o'zaro savdo hajmini oshirish va iqtisodiy aloqalarni jadallashtirishga xizmat qiladi. Ikkinchidan, investitsion hamkorlikni rivojlantirish va qo'shma loyihalarni moliyalashtirish mexanizmlarini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Uchinchidan, transport va logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish orqali mintaqaning tranzit salohiyatini oshirish talab etiladi. To'rtinchidan, raqamli iqtisodiyot va elektron savdo platformalarini rivojlantirish integratsion aloqalarni yangi bosqichga olib chiqadi.

Hududiy integratsiya rivojlanishida institutsional mexanizmlarning o'rni ham alohida ahamiyatga ega. Xorijiy integratsion uyushmalar tajribasi shuni ko'rsatadiki, samarali integratsiya uchun doimiy faoliyat yurituvchi mintaqaviy institutlar, yagona strategik dasturlar va huquqiy mexanizmlar zarur hisoblanadi. Markaziy Osiyoda ham iqtisodiy hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi institutsional tizimlarni mustahkamlash integratsion jarayonlarning izchil rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayniqsa, investitsiyalarni himoya qilish, savdo nizolarini hal etish va iqtisodiy loyihalarni muvofiqlashtirish bo'yicha yagona yondashuvlarni shakllantirish muhimdir.

Shuningdek, hududiy integratsiya jarayonlarida raqamli transformatsiya omili tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Elektron bojxona tizimlari, raqamli logistika platformalari, elektron to'lov tizimlari va onlayn savdo infratuzilmasi mintaqalararo iqtisodiy aloqalarni sezilarli darajada tezlashtiradi. Shu sababli Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun raqamli iqtisodiyot asosida integratsion hamkorlikni rivojlantirish istiqbolli yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu nafaqat iqtisodiy samaradorlikni oshiradi, balki xalqaro bozorlarda mintaqaning raqobatbardoshligini ham kuchaytiradi.

Umuman olganda, xorijiy tajriba hududiy iqtisodiy integratsiyaning iqtisodiy o'sish, investitsion jozibadorlik va mintaqaviy barqarorlikni ta'minlashdagi muhim rolini tasdiqlaydi. Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun ushbu tajribalarni chuqur o'rganish va mintaqa sharoitiga moslashtirish iqtisodiy hamkorlikning yangi bosqichini shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, transport-logistika, energetika, savdo va raqamli iqtisodiyot yo'nalishlarida integratsion aloqalarni kuchaytirish mintaqaning global iqtisodiy tizimdagi o'rnini mustahkamlashga imkon yaratadi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Hududiy iqtisodiy integratsiya zamonaviy jahon iqtisodiyotida iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash, savdo hajmini oshirish, investitsion faollikni kuchaytirish hamda transport-logistika aloqalarini rivojlantirishning muhim omillaridan biri hisoblanadi. Tadqiqot davomida Yevropa Ittifoqi, ASEAN, MERCOSUR va boshqa integratsion tuzilmalarning xorijiy tajribasi tahlil qilinib, ularning iqtisodiy samaradorlikni oshirishdagi o'rni aniqlandi. Tahlillar shuni ko'rsatdiki, integratsion jarayonlarning muvaffaqiyati institutsional mexanizmlarning samaradorligi, savdo to'siqlarining qisqartirilishi, yagona infratuzilma tizimining shakllantirilishi hamda davlatlar o'rtasidagi o'zaro manfaatdorlik darajasi bilan bevosita bog'liqdir.

Markaziy Osiyo mamlakatlari uchun hududiy integratsiya iqtisodiy hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish, mintaqaning tranzit va investitsion salohiyatidan samarali foydalanish hamda global iqtisodiy makondagi raqobatbardoshlikni oshirish imkonini beradi. Ayniqsa, transport-logistika, energetika, raqamli iqtisodiyot va savdo sohalaridagi hamkorlikni chuqurlashtirish mintaqa iqtisodiy barqarorligini mustahkamlashda muhim ahamiyat kasb etadi.



Tadqiqot natijalari asosida Markaziy Osiyo mintaqasida hududiy iqtisodiy integratsiyani rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- mintaqa davlatlari o'rtasida bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va yagona raqamli bojxona platformalarini joriy etish orqali savdo jarayonlarini tezlashtirish;
- transport-logistika infratuzilmasini modernizatsiya qilish va xalqaro transport koridorlari samaradorligini oshirish asosida tranzit salohiyatini kuchaytirish;
- energetika va suv resurslaridan samarali foydalanish bo'yicha qo'shma mintaqaviy dasturlarni kengaytirish;
- investitsion hamkorlikni rivojlantirish maqsadida qo'shma investitsiya fondlari va mintaqaviy moliyaviy mexanizmlarni shakllantirish;
- raqamli iqtisodiyot, elektron savdo va innovatsion texnologiyalar asosida integratsion aloqalarni yangi bosqichga olib chiqish;
- hududiy iqtisodiy hamkorlikni muvofiqlashtiruvchi institutsional mexanizmlarni takomillashtirish hamda yagona strategik yondashuvlarni ishlab chiqish.

Mazkur takliflarning amaliyotga joriy etilishi Markaziy Osiyo mamlakatlari o'rtasidagi iqtisodiy aloqalarni yanada mustahkamlash, ichki bozorlardan samarali foydalanish hamda mintaqaning xalqaro iqtisodiy tizimdagi o'rnini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asian Development Bank. CAREC 2030: Connecting the Region for Shared and Sustainable Development. – Manila: Asian Development Bank, 2017. – 52 p.
2. Asian Development Bank. CAREC Transport Strategy 2030. – Manila: Asian Development Bank, 2019. – 70 p.
3. World Bank. Borderless Bazaars and Regional Integration in Central Asia: Emerging Patterns of Trade and Cross-Border Cooperation. – Washington, D.C.: World Bank, 2012. – 88 p.
4. World Bank. Bazaars and Trade Integration in Central Asia. – Washington, D.C.: World Bank, 2009. – 73 p.
5. OECD/ITF. Enhancing Connectivity and Freight in Central Asia. – Paris: OECD Publishing, 2019. – 136 p.
6. Eurasian Development Bank. The Economy of Central Asia: A Fresh Perspective. – Almaty: Eurasian Development Bank, 2022. – 96 p.
7. United Nations ESCAP. Enhancing Regional Economic Cooperation and Integration in Asia and the Pacific. – Bangkok: United Nations, 2017. – 184 p.
8. United Nations ESCAP. Regional Economic Cooperation and Integration in South and South-West Asia. – Bangkok: United Nations, 2018. – 112 p.
9. World Trade Organization. World Trade Report 2011: The WTO and Preferential Trade Agreements: From Co-existence to Coherence. – Geneva: World Trade Organization, 2011. – 251 p.
10. ASEAN Secretariat. ASEAN Economic Community Blueprint 2025. – Jakarta: ASEAN Secretariat, 2015. – 32 p.
11. Bouzas R., Da Motta Veiga P., Torrent R. In-depth Analysis of MERCOSUR Integration, Its Prospectives and the Effects Thereof on the Market Access of EU Goods, Services and Investment. – Barcelona: Observatory of Globalisation, University of Barcelona, 2002. – 120 p.
12. Linn J.F. Central Asian Regional Integration and Cooperation: Reality or Mirage? – Washington, D.C.: Brookings Institution, 2012. – 33 p.



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2026. № 5 (3)

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

EI.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>
